



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 282 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
Tojirova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahridinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari	173
Ulasova Oygul Baxtiyorovna	
Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом.....	178
Бердиева Дилфуза Ахатовна	
Improving long-term assets accounting and auditing	184
Gulboy Yusupov	
Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli.....	189
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar.....	193
Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur	
Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar	200
Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li	
Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish.....	206
To'qliyev Abdirauf Bahodir o'g'li	
Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri.....	214
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса.....	219
Садикова Раъно Абдуллаевна	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati	225
Salixova G.J	
Iqtisodiyotda energiya xavfsizligiga erishishning xorij tajribasi.....	230
Samandarov Og'abek Alisher o'g'li	
Measuring methodologies of influence of the esg factors	235
Tolipova Feruza Alisherovna	
Совершенствование налогового администрирования в условиях экологически устойчивого развития.....	240
Омонов Отажон Журакулович	
Moliyaviy vositalar asosida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish	249
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Методологические аспекты внедрения управленческого учета в университетах Узбекистана.....	253
Каршиева Мохинур Олим кизи	
Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish (tibbiyot muassasalari misolida)	257
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
Умные города как фактор экономического развития.....	261
Нозима Кахрамоновна Хакбердиева	
Перспективы зеленого фактора экономического роста в Республики Узбекистан.....	266
Исламова Насиба Улугбек кизи, Абдурашидов Отабек Улугбекович, Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна	
Qurilish korxonalarida sifat menejmentini joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish	270
Ergashev O'tkir, Saidov Mash'al Samadovich	
Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash.....	275
Fozil Xolmurotov	



XORAZM VILOYATIDA EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH UCHUN POTENSIAL IMKONIYATLAR VA ULARNI BAHOLASH

Fozil Xolmurotov

Ma'mun Universiteti "Iqtisodiyot"
kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tadqiqot Xorazm viloyatining eksport salohiyatini har tomonlama tahlil qilib, uning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va tarmoq diversifikatsiyasi imkoniyatlarini yoritadi. Tadqiqotda 2010–2024-yillar oralig'idagi eksport tendensiyalari sifat va miqdoriy tahlil usullari asosida o'rganilgan. Paxta tolasi eksportining bosqichma-bosqich kamayib borishi va uning o'rnini meva-sabzavot, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari egallab borayotgani aniqlangan. Regressiya va korrelyatsiya tahlillari eksport ko'rsatkichlarining mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi. Tadqiqot, shuningdek, logistika infratuzilmasini takomillashtirish va innovatsion yondashuvlar orqali eksport raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan amaliy tavsiyalarni ilgari suradi. Ushbu natijalar Xorazm viloyatining barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash va xalqaro savdo integratsiyasida ishtirokini kuchaytirish masalalariga ilmiy asos beradi.

Kalit so'zlar: Xorazm viloyati, eksport salohiyati, tarmoq diversifikatsiyasi, iqtisodiy rivojlanish, logistika, xalqaro savdo.

Abstract: This study provides a comprehensive analysis of the export potential of the Khorezm region, highlighting its role in regional economic development and sectoral diversification. Using both qualitative and quantitative research methods, the study examines export trends from 2010 to 2024. The results indicate a significant shift from cotton fiber exports toward the increased export of fruits, vegetables, and other agricultural products. Regression and correlation analyses demonstrate a positive economic impact of export activities on regional development. The research emphasizes the critical role of logistics infrastructure and innovation, offering practical recommendations to enhance export competitiveness. These findings contribute to broader discussions on sustainable regional growth and integration into international trade systems.

Key words: Khorezm region, export potential, sectoral diversification, economic development, logistics, international trade.

Аннотация: Данное исследование посвящено всестороннему анализу экспортного потенциала Хорезмской области и его значению в обеспечении экономической стабильности и развития региона. В исследовании используются как качественные, так и количественные методы анализа экспортных тенденций за период 2010–2024 годов. Отмечено снижение доли экспорта хлопкового волокна и рост поставок на внешние рынки плодоовощной продукции и других сельскохозяйственных товаров. Регрессионный и корреляционный анализ демонстрирует положительное влияние экспортной активности на региональное экономическое развитие. Исследование также подчеркивает важность развития транспортно-логистической инфраструктуры и внедрения инноваций, предлагая практические рекомендации по повышению конкурентоспособности экспорта. Результаты работы вносят вклад в научное осмысление устойчивого экономического роста и международной торговой интеграции региона.

Ключевые слова: Хорезмская область, экспортный потенциал, диверсификация отраслей, экономическое развитие, логистика, международная торговля.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida eksport salohiyatini oshirish va uni tarmoqlar kesimida diversifikatsiya qilish masalasi alohida e'tiborga olinmoqda. Bu jarayon milliy iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligini ta'minlash, ichki bozorning raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish yo'lida muhim strategik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Natijada nafaqat mamlakatning umumiy iqtisodiy samaradorligi ortadi, balki global bozorlar bilan integratsiyalashuv jarayonlari ham izchil rivojlanadi. Bu esa O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy makondagi mavqeini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Mazkur kontekstda Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyati alohida e'tiborga loyiqdir. Viloyat o'zining qulay geografik joylashuvi, serhosil yer resurslari, boy agroiqtisodiy imkoniyatlari va tarixan shakllangan qishloq xo'jaligi sohasi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, paxtachilik, meva-sabzavotchilik va boshqa tarmoqlarda yetishtirilayotgan



mahsulotlarning eksport salohiyati yuqori bo'lib, ularning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi Xorazm iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

Eksport ko'rsatkichlarining izchil oshib borishi hududda iqtisodiy daromadlar hajmini ko'paytirish, yangi ish o'rinlari yaratish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda zamonaviy logistika va transport infratuzilmasini shakllantirish imkonini bermiqda. Shu bilan birga, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorga chiqishi rag'batlantirilmoqda. Bu holat Xorazm viloyatining iqtisodiy faolligini oshirish, tarmoqaro integratsiyani kuchaytirish va mintaqaviy taraqqiyot sur'atlarini jadallashtirishda muhim o'rin tutmoqda.

Shunga qaramay, viloyatda mavjud eksport salohiyatidan to'liq foydalanish yo'lida qator muammolar hamon saqlanib qolmoqda. Jumladan, mahsulot turlarining cheklanganligi, ishlab chiqarish jarayonlarida qo'shimcha qiymat yaratilishining past darajada ekanligi, shuningdek, transport va logistika infratuzilmasining rivojlanmagani eksport samaradorligini cheklovchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa mavjud imkoniyatlardan yetarlicha foydalanilmasligiga sabab bo'lmoqda.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – Xorazm viloyatining eksport salohiyatini kompleks tahlil qilish, mavjud imkoniyatlarni aniqlash, ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholash va eksport faoliyatini jadallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqot doirasida viloyat eksportining tarkibiy tuzilmasi, asosiy mahsulot turlari, ularning xalqaro bozordagi raqobatbardoshlik darajasi, eksportga ta'sir etuvchi infratuzilmaviy va institutsional omillar o'rganiladi.

Shunday qilib, ushbu ilmiy ish Xorazm viloyati eksport salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan strategik qarorlar qabul qilish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu nafaqat viloyat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash, balki mamlakatning umumiy eksport salohiyatini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorazm viloyatida eksport salohiyatini rivojlantirish va uni diversifikatsiya qilish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda O'zbekiston Respublikasining kengroq iqtisodiy strategiyasiga mos kelishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu strategiya barqaror iqtisodiy o'sishga, raqobatbardoshlikni oshirishga va xalqaro bozorda faol ishtirok etishga yo'naltirilgan. Xorazm viloyati o'zining noyob sanoat va qishloq xo'jaligi imkoniyatlari bilan ajralib turadi hamda davlat dasturlarida muhim o'rin egallaydi. Eksportni diversifikatsiya qilish va rivojlantirishga qaratilgan e'tibor mintaqaning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishga yo'naltirilgan strategik yo'nalishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Eksportni diversifikatsiya qilish O'zbekistonning iqtisodiy strategiyasida asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, u cheklangan turdagi xomashyo va tovarlarga qaramlikni kamaytirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi [1]. Xorazm viloyati strategiyasida eksport salohiyatini oshirish maqsadida mashinasozlik va paxta-to'qimachilik kabi sanoat klasterlarini rivojlantirish masalalari alohida o'rin egallagan [2]. Diversifikatsiya bo'yicha sa'y-harakatlar yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi siyosatlar bilan mustahkamlanmoqda, bu esa mintaqaning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi [3].

Eksportni diversifikatsiya qilish global bozor tebranishlari bilan bog'liq xavflarni yumshatish va tashqi iqtisodiy o'zgarishlarga moslashuvchanlikni ta'minlash orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi [4]. Xorazm viloyatini rivojlantirish strategiyasi barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda mavjud iqtisodiy salohiyatdan yanada samarali foydalanishga yo'naltirilgan bo'lib, milliy strategik maqsadlar bilan uyg'unlashadi [5]. Mintaqaviy rivojlanishning milliy iqtisodiy siyosat bilan integratsiyalashuvi Xorazm viloyatining O'zbekistonning umumiy iqtisodiy barqarorligiga qo'shayotgan hissasini oshiradi [6].

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy strategiyasida yangi bozorlarni ochish va eksport raqobatbardoshligini oshirish bilan bir qatorda JST kabi xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish orqali global iqtisodiyotga integratsiyalashuv ko'zda tutilgan. Markaziy Osiyo mintaqasida, xususan, Xorazm viloyatida transport va logistika infratuzilmasini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish mintaqaviy savdo-sotiq aloqalarini mustahkamlash, tovar aylanmasini kengaytirish va eksport salohiyatini oshirish yo'lida muhim strategik omil sanaladi. Davlat tomonidan ilgari surilayotgan siyosiy tashabbuslar, normativ-huquqiy islohotlar va asosiy infratuzilma tarmoqlariga yo'naltirilayotgan sarmoyalar aynan eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyot uchun qulay va barqaror muhitni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa viloyatning xalqaro iqtisodiy integratsiyadagi ishtirokini yanada faollashtirish imkonini beradi.

O'zbekistonning iqtisodiy strategiyasida eksportni diversifikatsiya qilish va rivojlantirish, xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega bo'lgan Xorazm kabi agrar hududlarda alohida e'tibor markazida turadi. Mamlakatda ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, innovatsiyalarni joriy etish va texnologik yangilanish borasidagi sa'y-harakatlar eksport imkoniyatlarini kengaytirish va mahsulotlarga qo'shimcha qiymat yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq



institutsional islohotlar, infratuzilmaga yetarli sarmoya kiritish, shuningdek, mintaqaviy va milliy ustuvorliklarni muvozanatli uyg'unlashtirish bilan bog'liq muammolar saqlanib qolmoqda.

Eksportni diversifikatsiya qilish iqtisodiy o'sish uchun muhim vositalardan biridir, chunki u eksportdagi beqarorlik hamda birlamchi mahsulotlarga bog'liq bo'lgan salbiy savdo shartlarining oldini olishga xizmat qiladi [8]. O'zbekiston strategiyasida yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushini ko'paytirish va xizmatlar eksportini kengaytirish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Empirik dalillar shuni ko'rsatmoqdaki, eksport diversifikatsiyasi aholi jon boshiga daromadlarning oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kiruvchi O'zbekiston misolida bu holat yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Eksportni jadallashtirish va diversifikatsiya qilish uchun iqtisodiy siyosatning kompleks yondashuvi zarur bo'lib, bu savdo, investitsiya va sanoat siyosati kabi yo'nalishlarni qamrab olishi lozim. Institutsional islohotlar mintaqaviy rivojlanishning huquqiy asoslarini takomillashtirish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash uchun muhim ahamiyatga ega [9]. Infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar esa eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash va mintaqaviy iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda muhim omil sifatida maydonga chiqmoqda [10].

O'zbekistonning mintaqaviy integratsiya strategiyasi mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash va Markaziy Osiyo hududida barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan [11]. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, hududiy iqtisodiy faollikni oshirish hamda innovatsion ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirish maqsadida mamlakatda bir qator maxsus iqtisodiy zonalar (EIZ) tashkil etilgan. Ushbu zonalar zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlanib, investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari kabi qulay sharoitlar yaratmoqda. Bu esa nafaqat sarmoyadorlar faolligini oshiradi, balki mahalliy ishlab chiqaruvchilarni global bozorga chiqishga undaydi va mintaqaviy iqtisodiy taraqqiyotga yangi sur'at bag'ishlaydi. 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida esa iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, inson kapitaliga sarmoya kiritish va inklyuziv o'sishni ta'minlash uchun qishloq joylarida taraqqiyotni rag'batlantirishga alohida urg'u berilgan.

O'zbekistonda eksportni diversifikatsiya qilish va rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor istiqbolli bo'lishiga qaramay, qashshoqlikni kamaytirish va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida hali dolzarb muammolar saqlanib qolmoqda. Mamlakatning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zolik jarayoni eksport uchun yangi imkoniyatlar ochishi mumkin, biroq bu integratsiya global ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Shu boisdan, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va milliy hamda mintaqaviy ustuvorliklarni uyg'unlashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni davom ettirish muhim ahamiyatga ega.

Jahon banki va boshqa xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etilgan hisobotlar O'zbekistonning xalqaro savdo aloqalarini diversifikatsiya qilish va mintaqaviy integratsiyadagi ishtirokini kuchaytirish zaruratini alohida ta'kidlamogda. Xorazm viloyatining eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun transport va logistika infratuzilmasini takomillashtirish lozimligi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan.

Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari Xorazm viloyatida eksportning tarkibiy o'zgarishlari va diversifikatsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan. Ularning tadqiqotlari paxta eksportidan oziq-ovqat va boshqa turdagi mahsulotlar eksportiga o'tishning ijobiy iqtisodiy ta'sirini asoslab beradi. Eksport faoliyatining hududiy rivojlanishga ta'siri bo'yicha xalqaro tajribaga tayangan holda ishlab chiqilgan yondashuvlar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Masalan, Porter (1990) nazariyasiga ko'ra, mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish uchun mavjud resurs va imkoniyatlardan samarali foydalanish zarur. Ushbu konseptual yondashuv Xorazm viloyatida eksport strategiyasini shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar sharhi Xorazm viloyatida eksport faoliyatini rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish va xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish zaruriyatini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqot esa mazkur masalalar yuzasidan yangi ilmiy yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Xorazm viloyatining eksport salohiyatini baholash hamda uni rivojlantirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash maqsadida sifat va miqdoriy tahliliy yondashuvlar qo'llanildi. 2010–2024-yillar davrini qamrab olgan holda Xorazm viloyatidagi eksport hajmi, mahsulot tarkibi va asosiy eksport bozorlariga oid statistik ma'lumotlar yig'ildi. Ushbu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Jahon banki hamda boshqa xalqaro tashkilotlar ma'lumotlar bazasidan olindi.

Tadqiqotda eksportning tarkibiy o'zgarishlarini aniqlash uchun trend tahlili va o'rtacha yillik o'sish sur'atlari hisoblab chiqildi. Eksport salohiyatining iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholash maqsadida korrelyatsion va regression tahlil usullaridan foydalanildi. Xorazm viloyatining eksport faoliyatida paxta hamda oziq-ovqat mahsulotlarining tutgan o'rni, logistika infratuzilmasining ta'siri va yangi bozorlarni o'zlashtirish imkoniyatlari chuqur o'rganildi.



Shuningdek, hududiy va xalqaro savdo siyosatining eksportga ta'siri kontekstida sifat tahlili o'tkazildi. Bu bosqichda tajribali mutaxassislar va soha ekspertlari bilan intervyular tashkil etilib, ularning fikrlari asosida xalqaro tajribalarni o'rganishga asoslangan yondashuv ishlab chiqildi. Natijalar tahlili asosida Xorazm viloyatining eksport salohiyatini yanada kengaytirish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyati, ayniqsa qishloq xo'jaligi tarmog'i orqali, mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Viloyat iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligiga tayanib, asosiy e'tibor paxta, meva va sabzavotlar kabi ekinlarni yetishtirishga qaratilgan. Ushbu mahsulotlarni eksport qilish mintaqaning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, daromad manbai bo'lib xizmat qiladi hamda O'zbekistonning umumiy iqtisodiy o'sishiga sezilarli hissa qo'shmoqda. Hududning strategik geografik joylashuvi va rivojlangan transport infratuzilmasi eksport salohiyatini oshirish, xalqaro bozorlarga integratsiyalashuv imkoniyatlarini kengaytirish uchun qulay zamin yaratmoqda.

Xorazm viloyatida yerlarning katta qismi paxta, meva va sabzavot yetishtirishga ajratilgan bo'lib, bu faoliyat sug'orish tizimining rivojlanganligi bilan mustahkamlangan. Mintaqaning qishloq xo'jaligi sohasi zich sug'orish tarmoqlari orqali qo'llab-quvvatlanadi, bu esa qurg'oqchil iqlim va suv tanqisligi sharoitida hal qiluvchi ahamiyatga ega [12]. Aytish joizki, viloyatda yetishtiriladigan asosiy eksport mahsuloti bu – ko'pincha "oq oltin" deb ataladigan paxtadir. Mazkur mahsulotning eksporti mintaqa iqtisodiyoti uchun strategik darajada muhim bo'lib, daromadlarning salmoqli qismini tashkil etadi hamda qishloq aholisining farovonligini ta'minlaydi [13].

Shuningdek, Xorazm viloyati yuklarning xalqaro bozorlarga samarali yetkazilishini ta'minlovchi transport infratuzilmasiga ega. Mazkur infratuzilma eksport xarajatlarini kamaytirish, logistika samaradorligini oshirish va mintaqa mahsulotlarining raqobatbardoshligini kuchaytirish nuqtai nazaridan muhim vosita hisoblanadi [14].

Viloyat eksporti mintaqa iqtisodiy o'sishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Eksport faoliyati mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirib, soliq tushumlarini oshiradi va mintaqaning umumiy iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi [15]. Tashqi iqtisodiy faoliyatning faollashuvi Xorazm viloyatining raqobatbardosh rivojlanishi uchun muhim o'rin tutadi. Xalqaro savdoda faol ishtirok etish orqali viloyat o'zining qishloq xo'jaligidagi ustunliklaridan samarali foydalanib, global iqtisodiy maydondagi mavqeini mustahkamlashi mumkin.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, Xorazm viloyatidagi eksport sektori innovatsiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish orqali iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda. Jumladan, Susan (kunjut) kabi eksportbop mahsulotlar salohiyatini oshirish uchun ularning sifati va hajmiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa viloyatning agrar iqtisodiyotini mustahkamlash va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ulushini oshirish imkonini beradi. (1-jadval)

1-jadval. Xorazm viloyatida export tarkibi 2010-2024-yillar.

Yillar	paxta tolas	ozuq-ovqat mahsulotlari	kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	energiya manbaalari va neft mahsulotlari	qora va rangli metallar	mashina va asbob-uskunalar	xizmatlar	boshqalar
2010	83,8	1,1	0,0	0,0	0,0	0,2	2,5	12,4
2011	85,0	0,3	0,2	0,0	0,0	0,1	3,9	10,6
2012	82,3	0,7	0,5	0,0	0,0	0,0	6,6	9,8
2013	65,3	1,4	0,4	0,0	0,0	0,0	27,8	5,1
2014	84,8	2,6	0,6	0,0	0,0	0,0	9,3	2,6
2015	75,2	2,5	0,7	0,0	0,1	0,0	8,0	13,5
2016	55,3	10,1	0,8	0,0	0,0	0,0	8,2	25,6
2017	43,1	11,6	0,8	0,0	0,0	0,0	8,1	36,3
2018	10,7	27,8	1,0	0,1	0,1	1,4	13,6	45,3
2019	5,2	49,1	0,6	0,9	1,0	0,1	11,4	31,7
2020	4,3	31,7	0,8	0,0	0,8	0,1	5,2	57,1
2021	0,5	31,1	0,8	0,6	0,9	0,2	8,1	57,9
2022	0,1	33,0	0,9	2,1	1,6	0,1	6,6	55,6
2023	0,0	46,3	0,9	1,0	0,0	0,2	6,2	45,2
2024	0,0	58,9	0,3	0,9	0,0	0,2	4,9	34,9



1-jadvalda Xorazm viloyatida 2010–2024-yillar davomida eksport tarkibining dinamikasini ko'rish mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2010-yilda mamlakat umumiy eksport hajmida paxta tolasi yetakchi o'rinni egallagan bo'lib, uning ulushi 83,8 foizni tashkil qilgan. Biroq keyingi yillarda eksport siyosatida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan diversifikatsiya natijasida bu ko'rsatkich keskin kamaygan va 2024-yilga kelib mutlaq 0 foizgacha tushgan. Shu bilan birga, 2013–2014-yillar oralig'ida paxta tolasi eksportida qisqa muddatli, ammo sezilarli o'sish qayd etilib, 65,3 foizdan 84,8 foizgacha ko'tarilgan. Bu davrdagi o'zgarishlar eksport tarkibida yuzaga kelgan muvaqqat siljishlar va global bozor talabining oshganligi bilan izohlanadi.

Mazkur jarayon Xorazm viloyatida paxta tolasi eksportining kamayib borayotganini hamda ehtimol, eksportning diversifikatsiyalashganligini ko'rsatadi. 2010-yilda oziq-ovqat mahsulotlarining eksportdagi ulushi atigi 1,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 58,9 foizga yetgan. Bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ayniqsa, oziq-ovqat sektori rivojlanayotganini bildiradi.

Kimyo mahsulotlari va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan buyumlar eksporti past darajada saqlanib qolgan bo'lib, 2010-yilda 0 foiz, 2024-yilda esa atigi 0,3 foizni tashkil etgan. Bu esa viloyat kimyo sanoatining eksport salohiyati hali to'liq rivojlanmaganligini ko'rsatadi.

Energiya manbalari va neft mahsulotlari eksporti 2010–2014-yillar davomida umuman qayd etilmagan. Biroq 2022-yildan boshlab bu yo'nalishda ijobiy o'zgarishlar yuz berib, eksport ulushi 2,1 foizgacha o'sgan. Bu esa energiya mahsulotlarining xalqaro bozorlarga chiqishi yo'lida yangi imkoniyatlar ochilganini bildiradi.

Qora va rangli metallar eksporti deyarli mavjud bo'lmagan yoki juda kam hajmda amalga oshirilgan bo'lib, 2010–2024-yillar oralig'ida ulushi 0%–1,6% atrofida bo'lgan. Bu esa ushbu yo'nalishda hali foydalanilmagan salohiyat mavjudligini anglatadi.

Mashina va asbob-uskunalar eksporti 2010-yilda 0,2% bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich deyarli o'zgarmagan – 0,2% atrofida qolgan. Demak, mashinasozlik va asbob-uskunalar ishlab chiqarish sohasida eksport salohiyati yetarlicha rivojlanmagan.

Xizmatlar sektori eksportida esa nisbatan ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan: 2010-yilda 2,5 foizni tashkil qilgan xizmatlar eksporti, 2024-yilga kelib 4,9 foizgacha o'sgan. Bu esa viloyatda xizmat ko'rsatish sohasi barqaror rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahlillar Xorazm viloyatining eksport salohiyatini rivojlantirish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqish zarurligini ochiq ko'rsatmoqda [16].

Xorazm viloyatining iqtisodiy taraqqiyotida eksport faoliyati alohida o'rin egallaydi. Eksport hajmining ortishi va uning barqaror rivojlanishi hududda iqtisodiy faollikning kuchayishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon quyidagi yo'nalishlar bo'yicha strategik ahamiyat kasb etadi:

Iqtisodiy o'sish va diversifikatsiya.

Eksport faoliyati daromad keltirishi va ish o'rinlarini yaratishi orqali iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shadi. Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligi, ayniqsa, paxta yetishtirish va bog'dorchilik mahsulotlari eksportning asosiy qismini tashkil etadi [17]. Xalqaro bozorlarga kirish orqali mintaqa iqtisodiy tizimini mahalliy iste'moldan tashqariga diversifikatsiya qilishi, ichki bozorlarga bog'liqlikni kamaytirishi va iqtisodiy o'zgarishlarga nisbatan moslashuvchanligini oshirishi mumkin. Eksportni diversifikatsiyalash barqaror rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi, chunki u yangi bozorlarni o'rganish, mahsulotlar turini kengaytirish, innovatsiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Valyuta daromadlari.

Eksport faoliyati mamlakat iqtisodiy barqarorligi uchun zarur bo'lgan xorijiy valyuta tushumlarini ta'minlaydi. Xususan, Xorazm viloyati eksport hajmining ortishi to'lov balansining ijobiy shakllanishiga xizmat qilishi mumkin. Bu esa mintaqaga mahalliy ishlab chiqarilmaydigan zarur tovarlar va xizmatlarni import qilish imkonini beradi [18]. Xorijiy valyutaning barqaror oqimi infratuzilma va ijtimoiy xizmatlar sohasiga investitsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi va natijada iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Ishga joylashish imkoniyatlari.

Eksport sektori Xorazm viloyatida muhim bandlik manbai hisoblanadi. Korxonalar xalqaro talabni qondirish uchun kengaygan sari, ko'proq ishchi kuchiga ehtiyoj seziladi. Bu holat, ayniqsa, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash va logistika sohalarida yangi ish o'rinlari yaratilishiga olib keladi [19]. Buning natijasida ishsizlik darajasi pasayadi, aholining daromadi oshadi va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Infratuzilmani rivojlantirish.

Eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash zarurati transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirishni talab etadi. Xorazm viloyatida avtomobil yo'llari, temir yo'llar, logistika markazlari va omborxona tizimining yaxshilanishi savdo jarayonlarini tizimli olib borishga yordam beradi. Shu bilan birga, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlarga chiqishini osonlashtiradi [20]. Yaxshilangan infratuzilma nafaqat eksportchilarga, balki umumiy iqtisodiy muhitga ham foyda keltiradi; u investitsiyalar oqimini rag'batlantiradi va mintaqaviy taraqqiyotga turtki beradi.

**Mintaqaviy integratsiya va hamkorlik.**

Eksport faoliyati mintaqaviy iqtisodiy integratsiya va hamkorlik aloqalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Xorazm viloyati qo'shni davlatlar bilan savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yish orqali iqtisodiy manfaatdorlikni kuchaytiradi va ko'p tomonlama hamkorlik tashabbuslarini ilgari suradi. Bunday o'zaro hamkorlik umumiy resurslardan foydalanish, tajriba almashuvi va qo'shma korxonalar tashkil etilishiga yo'l ochadi. Natijada, viloyatning mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy manzaradagi mavqeini mustahkamlash imkoniyati oshadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Xorazm viloyatida eksport faoliyati hududiy iqtisodiy barqarorlik va uzoq muddatli rivojlanishning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, viloyatning eksport salohiyati yetarli darajada yuqori bo'lib, xalqaro bozorlar ehtiyojiga mos va raqobatbardosh mahsulotlarni yetkazib berish orqali nafaqat mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, balki butun mamlakat eksport strategiyasining samarali amalga oshishiga ham sezilarli hissa qo'shmoqda. Bu esa Xorazm viloyatini O'zbekistonning global iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvi yo'lida muhim regional tayanch nuqtasiga aylantirmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, paxta tolasi eksportining kamayishi va oziq-ovqat mahsulotlari eksportining oshib borishi Xorazm viloyatida eksport tarkibining diversifikatsiyalanayotganini yaqqol ifodalaydi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishga qaratilgan strategiyalar yangi ish o'rinlari yaratish, aholi turmush darajasini oshirish va iqtisodiy barqarorlikka erishish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, transport va logistika infratuzilmasining izchil rivojlantirilishi viloyat eksport hajmining o'sishiga xizmat qilmoqda.

Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, ba'zi sohalarda, xususan, mashinasozlik va kimyo sanoatida eksport salohiyati hali to'liq ishga solinmagan. Shu sababli, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilishni rag'batlantiruvchi siyosat va amaliy tashabbuslarni kuchaytirish zarur. Bundan tashqari, xalqaro bozorga chiqishni osonlashtirish uchun institutsional islohotlarni davom ettirish, bojxona va logistik jarayonlarni soddalashtirish, shuningdek, yangi bozor segmentlarini o'zlashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilishi lozim.

Mazkur tadqiqot Xorazm viloyatining eksport salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi strategik yo'nalishlarni belgilashda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Eksport ko'lamini kengaytirish orqali viloyat nafaqat O'zbekiston iqtisodiy o'sishiga sezilarli hissa qo'shadi, balki mintaqaviy va global savdo aloqalarida faol ishtirokchi sifatida o'z mavqeini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Aaron, Rae, Stephens. (2023). The Central Asian tiger: Export specialization in Uzbekistan: Opportunities for economic diversification and development. *The European Journal of Applied Economics*, 20(1): 22–38. doi: 10.5937/ejae20-41446
2. R.P., Jumaniyozov. (2022). Strategy for the development of industry in the Khorezm region of the Republic of Uzbekistan. *Экономика и предпринимательство*, 393–398. doi: 10.34925/eip.2021.137.12.077
3. G., Sultanova. (2024). Trends in development and diversification of exports of the Republic of Uzbekistan. doi: 10.60078/2992-877x-2024-vol2-iss10-pp232-249
4. I., Kutenina. (2022). Foreign economic potential and its impact on sustainability of the regional economy. *Научные труды Вольного экономического общества России*, 237(5): 184–201. doi: 10.38197/2072-2060-2022-237-5-184-201
5. Avezov, M.K. (2024). Strategic directions for improving the efficiency of the economic potential of the region. *Экономика и предпринимательство*, 559–562. doi: 10.34925/eip.2024.165.4.109
6. Foreign Economic Strategy and Innovative Economic Development of Uzbekistan. doi: 10.54216/jsdgt.030201
7. Belozerov, V.L., Kobesov, K.K., Kurenkov, P., Zotova, E.V. (2024). Prospects for further development of logistics and trade in Central Asian countries. *BRIS Transport*, 3(3): 1–6. doi: 10.46684/2024.3.1
8. Hesse, Heiko. (2008). Export diversification and economic growth. *World Bank Publications*, 1–36.
9. Yakubova, E.T. (2023). Mechanisms for increasing diversification and deepening the competitive advantages of the region's industry. *Экономика и предпринимательство*, 490–493. doi: 10.34925/eip.2022.145.8.097
10. Sattarov, S.A. (2018). Special economic zones as an engine of regional economic development: The best practices and implications for Uzbekistan. *International Journal of Management Science and Business Administration*, 4(4): 48–55. doi: 10.18775/IJMSBA.1849-5664-5419.2014.44.1006
11. Shao, Junling. (2023). Analysis of sustainable development of Uzbekistan's regional economy. doi: 10.47390/sp1342v3i11y2023n09
12. Vlek, P.L.G., Lamers, J.P.A., Martius, C., Rudenko, I., Manschadi, A.M., Eshchanov, R. (2012). Cotton, water, salts and soums – Research and capacity building for decision-making in Khorezm, Uzbekistan. 3–22. doi: 10.1007/978-94-007-1963-7_1



13. Nurmetov, K., Pokrivčák, J., Salaev, S., Baynazarov, E. (2015). Fruits and vegetables sector of Khorezm, Uzbekistan: Challenges and perspectives. *Journal of Agribusiness and Rural Development*, 9(36): 257–265. doi: 10.17306/JARD.2015.27
14. Kovaleva, I. (2023). Development of foreign economic activities of the industry sector of the region. *Vestnik of Kazan State Agrarian University*. doi: 10.12737/2073-0462-2023-160-167
15. Tursunov, U. (2018). The export performance of the regions of Uzbekistan and its main determinants. doi: 10.36880/C10.02170
16. Xolmurotov, F.S. (2023). Viloyat qishloq xo'jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanish tahlili (Xorazm viloyati misolida). *Ma'mun Science*, 1(2).
17. Qodirov, A., Urakova, D., Amonov, M., Masharipova, M., Ibadullaev, E., Xolmurotov, F., Matkarimov, F. (2024). The dynamics of tourism, economic growth, and CO₂ emissions in Uzbekistan: An ARDL approach. *International Journal of Energy Economics and Policy*, 14(6): 365–370.
18. Saribayevich, X.F., Sariyevich, X.X., Davlatov, S., Turobova, H., Ruziyev, S. (2024). Analysis of factors affecting CO₂ emissions: In the case of Uzbekistan. *International Journal of Energy Economics and Policy*, 14(4): 207–215.
19. Xolmurotov, F. (2023). Mintaqada aholi turmush farovonligini oshirishda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi subyektlar roli. *Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук*, 3(7): 83–91.
20. Xolmurotov, F.S. (2021). Разработка прогнозных значений ключевых показателей сельского хозяйства Хорезмской области. *Экономика и предпринимательство*, (6): 577–581.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>